

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

Ro'yxatga olindi:
№ BD-60811500 – 2.08
"29" 08 2024 yil



"TASDIQLAYMAN"
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
q.x.f.d., professor
Elmurodov A.A.
08 2024

CHO'CHQACHILIK

ISHCHI O'QUV DASTURI (SILLABUSI)
(Sirtqi ta'lim 4-bosqich talabalari uchun)

Bilim sohasi:	800000	- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi va veterinariya
Ta'lim sohasi:	810000	- Qishloq xo'jaligi
Ta'lim yo'nalishi:	60811500	- Zootekhnika (turlari bo'yicha)

Samarqand – 2024

Fanning ishchi o'quv dasturi (sillabusi) 202_ yilda tasdiqlangan o'quv reja va fan dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

- Qurbonova Sh.E.** – Sam DVMChBU “Xususiy zootexniya” kafedrasida dotsenti, qishloq xo'jalik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Gapparov Sh.T. – SamDVMChBU “Xususiy zootexniya” kafedrasida assistenti
Axtamova M.T. – SamDVMChBU “Xususiy zootexniya” kafedrasida assistenti qishloq xo'jalik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Dehqonov B. – SamDVMChBU “Xususiy zootexniya” kafedrasida assistenti
Ibragimov D. – SamDVMChBU “Xususiy zootexniya” kafedrasida assistenti

Taqrizchilar:

- E.S.Shaptakov** - Qorako'lichilik va cho'l ekologiyasi ilmiy tadqiqot instituti direktori, q.x.f.d., professor
Sh.K.Amirov - Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti “Oziq ovqat xavfsizligi va texnologiyasi” kafedrasida professor q.x.f.d.


Fanning ishchi o'quv dasturi “Xususiy zootexniya” kafedrasining 2024 yil “___” ___dagi “___” -son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet Kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri, dotsent:  **Maxmadiyarov O.A.**

Fanning ishchi o'quv dasturi “Zooinjeneriya” fakulteti Kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2024yil ___dagi ___ -sonli bayonnoma).

Fakultet kengashi raisi:  **O.S.Boymatov**

Kelishildi:

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i professor: v.b.  **Ro'ziqulov R.F.**

Fan Sillabusi
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti

Fan to'g'risida ma'lumot

Fan shifri: Ch2705

Fan nomi: Cho'chqachilik

Semestr/yil: 8-semestr/2024-2025-o'quv yili

Kafedra: Xususiy zootexniya

Soatlar/kreditlar: 5,0 ECTS (20 auditoriya soati, 130 soat mustaqil ta'lim)

Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	Laboratoriya mashg'ulot	Mustaqil ta'lim	Jami
6	10	4	130	150

Fan bo'yicha mashg'ulotlarning joylashuvi:

Auditoriya vaqti: dars jadvaliga asosan

Talablar:

Fan uchun mas'ul kafedra: Xususiy zootexniya

Instruktor to'g'risida ma'lumot

Kafedra joylashgan joyi: SamDVMChBU, 6-o'quv binosi, 618-xona

Telefon: +99890-227-81-81 ish telefoni; mobil: +99890-227-81-81

E.mail. munira_axtamova@mail.ru Ish vaqti: Uchrashuvga ko'ra

I. Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga cho'chqalarning biologiyasi to'g'risidagi bilimlarning nazariy asoslarini, hayvonlarning irsiy salohiyatini oshirish, mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish texnologiyasini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tadbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

II. Fanning vazifasi - cho'chqalarni urchitish, ularning mahsuldorlik xususiyatlarini oshirish, go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirishda seleksion-texnologik usullardan hamda ularning biologik salohiyatidan foydalanish to'g'risida olib boriladigan biotexnologik usullarni talabalarga yetkazishdan iborat.

III. Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- cho'chqalarni urchitish, ularning mahsuldorlik xususiyatlarini oshirish, go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirishda seleksion-texnologik usullardan hamda ularning biologik salohiyatidan foydalanish to'g'risida *tasavvurga ega bo'lishi;*
- fermer, dehqon, shaxsiy yordamchi xo'jaliklarda cho'chqachilik xo'jaligida ish kun tartibini; go'shtni ko'paytirish usullarini qo'llash; ozuqa tayyorlash, go'ngdan tozalash va zoogigiyenik parametrlarini me'yorlashtirishda ishlatiladigan mashina, mexanizmlar, asbob-uskunalardan foydalanish *ko'nikmalariga ega bo'lish;*
- talaba yosh cho'chqa bolalarini jadal o'stirish, intensiv bo'rdoqilash, qayta urchish qobiliyatidan hamda cho'chqalar seleksiyasining nazariy va amaliy asoslaridan ijodiy foydalanish, cho'chqalarni oziqlantirish va saqlash muammolari bo'yicha yechimlar ishlab chiqish *malakasiga ega bo'lishi kerak.*

IV. O'qitish usullari:

Fanni o'qitish jarayonida zamonaviy uslublardan foydalanish, sohadagi muammolarni ta'limning ommaviy shakllari bilan bog'lab, talabalarning nazariy bilimlarini amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlab borish lozim. O'quv materiallarini talabalar tomonidan unumli o'zlashtirish uchun ko'rgazmali qurollar o'qitishning texnik vositalari, "Cho'chqachilik" fani bo'yicha chop etilgan ma'ruza matnlaridan keng foydalanish, talaba bilimini baholash tizimini joriy etish. Ma'ruza mashg'ulotlarida ilg'or pedagogik texnologiyalar foydalaniladi.

"Cho'chqachilik" kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.

Tizimli yondoshuv.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv.

Dialogik yondoshuv.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.

Muammoli ta'lim.

V. Fanning tarkibiy tuzilishi:

5.1. "Cho'chqachilik" fanidan rejalashtirilgan ma'ruza mashg'ulotlarining kalendariy tematik rejasi

Ma'ruza mashg'ulotlarining:			
№	mavzulari	rejasi	soat
1-modul. Kirish. Cho'chqachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati			
1.1	Cho'chqachilikning ahamiyati. Cho'chqalarning kelib chiqishi va biologik xususiyatlari.	1.1.1. Cho'chqachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati, hozirgi holati, rivojlanishi. Cho'chqalarning yovvoyi ajdodlari. 1.1.2. Cho'chqalarning o'sishi va rivojlanishi, ovqat hazm qilish tizimining xususiyatlari. 1.1.3. Cho'chqalarning jinsiy va fiziologik voyaga yetishi. Cho'chqalarning hammaxo'rliqi, serpushtligi, tez yetiluvchanligi, mahsulot birligini ishlab chiqarishga ozuqa sarfi.	2
2-modul. Cho'chqa zotlari			
2.1	Cho'chqa zotlari	2.1.1. Respublikamizda rejali urchitiladigan cho'chqa zotlari. Cho'chqa zotlarining mahsuldorlik yo'nalishi bo'yicha tiplari, tafovutlari. 2.1.2. Zotlarning yaratilish tarixi, mahsuldorlik darajasi, zotlarni yaratishda qo'llaniladigan urchitish usullari. Go'sht, bekon va yog' olish uchun ixtisoslashgan zotlarning o'ziga xos xususiyatlari.	2
3-Modul. Cho'chqachilikda naslchilik ishlarini olib borish texnologiyasi			
2.5	Cho'chqachilikda	4.2.1. Naslchilik ishining ta'rifi.	2

to'g'risida"gi PQ-187-son qarori.6. David Cottle and Lewis Kahn //Beef cattle production and trade// Australia. 2014.

8. Clive J.C. Phillips //Principles of Cattle Production// 3rd Edition. USA 2018.

9. Омаркожаулы Н., Шауенов С. Инновационные технологии производства продукции животноводства. Учебно-методический комплекс. Астана. 2016.

Ахборот манбаалари

10. www.Ziyo.net.

11. www.uralrti.ru.

12. www.twirpx.com

VIII. Baholash

Talabalarning fanlarni o'zlashtirishi 5 ballik tizimda baholanadi.

5 (a'lo) baho:

Xulosa va qaror qabul qilish;

Ijodiy fikrlay olish;

Mustaqil mushohada yurita olish;

Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;

Mohiyatini tushunish;

Bilish, aytib berish;

Tasavvurga ega bo'lish;

4 (yaxshi) baho:

Mustaqil mushohada yurita olish;

Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;

Mohiyatini tushunish;

Bilish, aytib berish;

Tasavvurga ega bo'lish;

3 (qoniqarli) baho;

Mohiyatini tushunish;

Bilish, aytib berish;

Tasavvurga ega bo'lish;

2 (qoniqarsiz) baho:

Dasturni o'zlashtirmaganlik;

Fanning mohiyatini bilmaslik;

Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;

Mustaqil fikrlay olmaslik.

naslchilik ishlari	Foydalaniladigan urchitish usullari. Tanlash va juftlash. Naslchilik va tovar xo'jaliklarining vazifalari. Naslchilik ishlarining vazifalari. Naslchilik ishlarining nazariy (o'zgaruvchanlik, irsiy belgilarining o'zaro bog'liqligi) asoslari. 4.2.2. Cho'chqalarni bonitirovka qilish. Cho'chqalarni nazoratli bo'rdoqilash usuli bilan baholash. Naslchilik ishida foydalaniladigan hisob-kitob ishlari.	
Jami:		6

5.2. "Cho'chqachilik" fanidan rejalashtirilgan amaliy mashg'ulotlarining kalendar tematik rejası

Amaliy mashg'ulotlarning			
№	mavzulari	rejasi	soat
1.	Cho'chqalarning eksteryeri.	1.1.Cho'chqalarning ko'z bilan chamalab baholash, butun tanasini ayrim qismlarga bo'lib organish. 1.2.Olingan o'lchamlar asosida tana indekslarini baholash 1.3. Rasmga olib baholash va qisqacha yozuv kalitlardan foydalanib baholash.	2
2.	Cho'chqalarning o'sish ko'rsatkichlarini hisobga olish.	2.1. Davr bo'yicha bosh soni o'zgarib turadigan guruhlardagi cho'chqalarning bir oy maboynidagi mutloq o'sishini hisoblash 2.2. Cho'chqalarning o'rtacha kunlik o'sishi ko'rsatkichlarini o'rganish.	2
3.	Ona cho'chqalarning va erkak naslli cho'chqalarning mahsuldorligini baholash.	3.1. Ona cho'chqalar guruhidan eng maqsadga muvofiqini ajratib olish, ona cho'chqalarning pushtdorligini aniqlash 3.2. Ona cho'chqalarning sutdorligini hisobga olishni o'zlashtirish. Erkak naslli cho'chqalarning mahsuldorligini baholash. 3.3. Erkak naslli cho'chqalarning urg'ochi cho'chqalarni urug'lantirish qobiliyati. 3.4. Erkak naslli cho'chqalarning qizlarining pushtdorligini baholash.	2
4.	Cho'chqalarni urug'lantirish va urug'ining sifatini baholash.	4.1. Cho'chqalardan urug' olish texnologiyasi. 4.2. Cho'chqalarni urug'ining sifatini baholash. 4.3. Cho'chqalarning urug'ini urug'lantirishga tayyorlash.	2
5.	Cho'chqalar go'shtining	5.1. Cho'chqalar go'shtining muskul	2

	morfologik ko'rsatkichlarini baholash.	tarkibini baholash. 5.2. Cho'chqalar go'shtining shipigining tarkibini baholash. 5.3. Cho'chqalar go'shtining terisining tarkibini baholash.	
Jami:			10

5.3. "Cho'chqachilik" fanidan rejalashtirilgan laboratoriya mashg'ulotlarining kalendar tematik rejasi

Laboratoriya mashg'ulotlarining			
№	mavzulari	rejasi	soat
1.	Cho'chqalarni tamg'alash usullari.	1.1. Cho'chqalarni tatuirovka usulida tamg'alash. 1.2. Cho'chqalarni en solish usulida tamg'alash. 1.3. Cho'chqalarni sirg'alash usulida tamg'alash.	2
2.	Cho'chqalarni so'yish usullari.	2.1. Cho'chqalarni xushsizlantirish. 2.2. Cho'chqalarni so'yish texnologiyalari. 2.3. Cho'chqalarni qonsizlantirish.	2
Jami:			4

VI. "Cho'chqachilik" fanidan rejalashtirilgan talabalar mustaqil ta'limining kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Amalga oshirish mexanizmi	Hajmi (soatda)
1.	Cho'chqalarning yovvoyi ajdodlari.	Adabiyotlardan konspekt qilib referat yozish	8
2.	Turli yo'nalishdagi cho'chqachilik xo'jaliklarida poda tarkibining tafovutlari, ularni takror ishlab chiqish.	Adabiyotlardan foydalanib amaliy topshiriqlarni bajarish	8
3.	Mahsuldorlik yo'nalishi bo'yicha cho'chqa zotlari.	Referat yozib, tayyorlash.	8
4.	Respublikamizda urchitiladigan cho'chqa zotlari, ularning tavsifi, mahsuldorlik yo'nalishi.	Adabiyotlardan foydalanib referat yozib tayyorlash	8
5.	Cho'chqachilikda tanlash.	Adabiyotlardan foydalanib induvidual topshiriqlarni bajarish.	6
6.	Cho'chqachilikda juftlash.	Adabiyotlardan foydalanib induvidual topshiriqlarni bajarish.	8
7.	Tug'im jarayonini tashkil qilish va o'tkazish.	Adabiyotlardan foydalanib induvidual topshiriqlarni bajarish.	6

8.	Cho'chqachilikda qo'llaniladigan axtalsh usullari.	Adabiyotlardan foydalanib amaliy topshiriqlarni bajarish	6
9.	0-2 oylik cho'chqa bolalarini o'stirish texnologiyasi.	Adabiyotlardan foydalanib amaliy topshiriqlarni bajarish	8
10.	2-4 oylik cho'chqa bolalarini parvarishlash texnologiyasi.	Adabiyotlardan foydalanib amaliy topshiriqlarni bajarish.	8
11.	Cho'chqachilikda bonitirovkani tashkil qilishning umumiy tamoillari.	Referat yozib, tayyorlash.	6
12.	Naslli ona cho'chqalarni bonitirovka qilish.	Adabiyotlardan foydalanib induvidual topshiriqlarni bajarish.	6
13.	Naslli erkak cho'chqalarni bonitirovka qilish.	Referat yozib, tayyorlash.	8
14.	0-2 oylik cho'chqalarni bonitirovka qilish.	Internet ma'lumotidan foydalanib, konspekt qilish	6
15.	2-4 oylik cho'chqalarni bonitirovka qilish.	Internet ma'lumotidan foydalanib, konspekt qilish	6
16.	Nasl uchun qoldirilgan yosh cho'chqalarni baholash.	Adabiyotlardan foydalanib, amaliy topshiriqlarni bajarish.	8
17.	Cho'chqalarning go'sht va yog' mahsuldorligini baholash.	Adabiyotlardan foydalanib amaliy topshiriqlarni bajarish.	8
18.	Cho'chqalarning gemotalogik ko'rsatkichlarini aniqlash.	Internet ma'lumotidan foydalanib, konspekt qilish	8
Jami:			130

VII. Adabiyotlar Asosiy adabiyotlar

1. N.O.Mavlonov "Cho'chqachilik" Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti 1969.
2. В.И.Камлацкий, Л.Ф.Величко В.А.Велчко "Биология и этология свиней" Краснодар КубГАУ 2017.

Qo'shimcha adabiyotlar

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.
4. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696 son Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish